

O'ZBEKISTON VA XORIJİY DAVLATLARDA BOLALARNI RAQAMLI
XAVFLARDAN HIMoya QILISH TAJRIBASI

Usmonova Bonuxon Qahramon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura boshqichi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15679853>

Annotatsiya. Ushbu tezisda kiberjinoyatlar, ayniqsa voyaga yetmaganlardagi kiberbulling va boshqa maqsadli rejalashtirish-xatarlar tahlil qilingan. O'zbekiston qonunchiligi hamda boshqa davlatlar (Germaniya, Belgiya, Belgiya, Angliya, Rossiya) solishtirib o'rganilgan. Bundan tashqari, voyaga voyagalarini himoya qilish, ularga nisbatan xavfsizlik va profilaktika choralariga e'tibor qaratish mumimligi ko'rsatilingan.

Kalit so'zlar: kiberjinoyatchilik, kiberbulling, raqamli xavfsizlik, jinoyat javobgarligi, huquqiy maqom, bolalar huquqlari, O'zbekiston qonunchiligi, xalqaro tajriba, sud-huquq tizimi, axborot texnologiyalari, tarbiyaviy choralar, psixologik yordam, ijtimoiy moslashtirish, reabilitatsiya choralar, internet xayflari.

Globallashuv jarayonida Internet axborot makoni nafaqat ijtimoiy aloqalarni kengaytirish va bilim olish vositasi, balki huquqbarliklarning ham yangi shakllari yuzaga keladigan platformaga aylangan. Xususan, voyaga yetmaganlar orasida kiberjinoyatlar yoki Internet orqali sodir etiladigan boshqa huquqbarliklar sonining ortib borishi bugungi kunda jiddiy ijtimoiy muammoga aylanmoqda. Bunday huquqbarliklar nafaqat jinoyat sodir etgan shaxsga, balki jamiyatga, axloqiy qadriyatlarga, yoshlarning psixologik holatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston singari aholisi tez sur'atlarda raqamli dunyoga integratsiyalashayotgan davlatda bu muammoga jiddiy e'tibor qaratilishi zarur.

Bugungi kunda voyaga yetmaganlar tomonidan Internet tarmog'ida sodir etilayotgan huquqbarliklar turlicha ko'rinishda namoyon bo'lmoqda: bu kiberbulling (onlayn tahdid, haqorat), pornografik materiallarga kirish yoki ularni tarqatish, noqonuniy kontentga jalb etilish, boshqalarning shaxsiy ma'lumotlarini noqonuniy olish, onlayn firibgarlik va hatto ekstremistik g'oyalarga ta'sirlanish holatlarigacha boradi.

Yoshlar, xususan voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilish nafaqat O'zbekiston Respublikasining ichki siyosatida, balki xalqaro miqyosda ham ustuvor va umumiylar olingan maqsadlardan biri hisoblanadi. Tadqiqotchi

Sh.A. Sayfullayev o'zining magistrlik dissertatsiyasida qayd etganidek, voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilish masalasi O'zbekiston Respublikasi, boshqa suveren davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan¹.

Bugungi kunda ushbu yo'nalishda bir qator huquqiy asoslar, institutsional mexanizmlar va maxsus tizimlar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. Jumladan, davlat siyosatida voyaga yetmaganlarga oid jinoyat huquqi normalarini liberallashtirish, ya'ni jinoyat kodeksining tegishli moddalari doirasida ularga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'limgan jazolarni qo'llash, ularni jazodan ozod etish va ijtimoiy reabilitatsiyani kuchaytirish kabi yondashuvlar

¹ Sh. A. Sayfullayev. "Voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish instituti: Qiyosiy-Huquqiy Tahsil" mavzusidagi magistrlik dissertatsiya Ishi. Toshkent – 2022.

ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada rivojlangan mamlakatlar tajribasiga tayangan holda, jinoyat qonunchiligin takomillashtirish ishlari izchil davom ettirilmoqda.

Shuningdek, jinoyat qonunchiligidagi mavjud yondashuvlar voyaga yetmagan shaxslarni jazo obyekti sifatida emas, balki ijtimoiy reabilitatsiyaning muhim subyekti sifatida ko‘rishga yo‘naltirilgan. Tadqiqotchi Sh. Pulatovaning fikricha, voyaga yetmaganlarni ozodlikdan mahrum qilish muassasalarida saqlash ularning ijtimoiy holatiga, ruhiy salomatligiga va tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ayniqsa, og‘ir jinoyat sodir etgan yoki jinoyatga moyil tengdoshlar bilan muloqotda bo‘lishi, ularning ruhiyatiga yanada salbiy ta’sir o‘tkazadi².

Shu sababli, voyaga yetmaganlar uchun belgilangan jazo turi faqat jazolash maqsadiga xizmat qilmasligi, balki tarbiyaviy va ijtimoiy yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Yengilroq jazo turi sifatida qo‘llanilayotgan ozodlikdan cheklash chorasi esa, ba’zan “jinoiy hayotga kirish eshigini ochuvchi” omil sifatida emas, balki voyaga yetmagan shaxsni real hayotga tayyorlovchi va uni ijtimoiy muhitga qayta moslashtiruvchi bir mакtab vazifasini bajarishi zarur.

Bu boradagi xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, ko‘plab rivojlangan mamlakatlar jinoyat qonunchiligidagi jazolash emas, balki reabilitatsiya va ijtimoiy integratsiyani asosiy maqsad sifatida belgilagan. Shu munosabat bilan, xorijiy tajribani chuqur o‘rganish, tahlil qilish hamda O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligiga ijobiy jihatlarini moslashtirilgan holda tadbiq etish dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xususan, Germaniya Jinoyat kodeksida o‘n to‘rt yoshgacha bo‘lgan shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilmaydigan subyektlar sifatida belgilangan³. “Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha sudlar to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra, o‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxslarning javobgarligi shaxsning rivojlanish darajasi va aqliy etukligiga qarab belgilanadi. Agar jinoyat sodir etilgan vaqtida voyaga yetmagan shaxs etuk deb topilsa, u jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Biroq, ushbu yosh toifasi umumiy jinoyat qonunchiligi doirasida emas, balki alohida qonun — voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha qonun asosida javobgarlikka tortiladi.

Mazkur qonunchilik asosida jinoiy javobgarlik uchta toifaga ajratiladi: tarbiyaviy choratadbirlar, intizomiy ta’sir choralar va yoshlar uchun maxsus qamoq jazosi. Bu choralardan faqat oxirgisi jinoiy sanktsiya sifatida baholanadi. Intizomiy choralar esa faqat tarbiyaviy choralar samara bermagan hollarda qo‘llaniladi. Ular quyidagilarga bo‘linadi: ogohlantirish, shaxsiy kechirim so‘rash, yetkazilgan zararlarni qoplash yoki ijtimoiy tashkilotlarga to‘lov qilish. Bundan tashqari, uncha og‘ir bo‘lmagan huquqbuzarliklarda, voyaga yetmaganlar maxsus muassasalarda qisqa muddatli yoki uzoq muddatli (bir haftadan to‘rt haftagacha) qamoqda saqlanishi mumkin. Bu choralar sudlanganlik holatini keltirib chiqarmaydi.

Belgiya qonunchiligiga ko‘ra, jinoyat kodeksida belgilangan jazolar voyaga yetmaganlarga nisbatan qo‘llanilmaydi. Ular 1965-yil 8-apreldagi “Yoshlarni himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun asosida yoshlar sudlarida ko‘rib chiqiladi. Biroq, agar shaxs o‘n olti yoshdan oshgan bo‘lsa, ayrim hollarda u umumiy sud yurisdiksiyasiga berilishi mumkin⁴.

² Ш.Пулатова. Ўзбекистон Республикасида ювенал юстицияни ривожлантиришнинг айрим масалалари. Ўзбекистон республикаси жиноят кодексини такомillashtiriш масалалари. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. 2017. 96-bet.

³ Strafgesetzbuch (StGB) – German Criminal Code. URL: <https://www.gesetze-im-internet.de/stgb/>

⁴ Loi du 8 avril 1965 relative à la protection de la jeunesse (Belgiya). URL: <https://www.ejustice.just.fgov.be>

Mazkur qonunda quyidagi ta'sir choralari nazarda tutilgan: ota-onada yoki shaxslar orqali nazoratni kuchaytirish, ta'lif olish va ijtimoiy xizmatlarni bajarish majburiyati, psixologik maslahat olish, homiylik oilasiga yoki maxsus muassasaga joylashtirish, ixtisoslashtirilgan markazlarda saqlash.

Fransiya Jinoyat kodeksining 122-moddasi 8-qismida o'n uch yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlarning jinoiy javobgarligi istisno etiladi. O'n uch yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lganlar esa, alohida qonunchilik asosida javobgarlikka tortiladi⁵. 1945-yil 2-fevraldag'i "Qonunbuzarlik to'g'risida"gi qonun asosida Bolalar sudyasi tomonidan quyidagi chora-tadbirlar qo'llanilishi mumkin: ogohlantirish, ota-onada yoki ishonchli shaxsga topshirish, sud himoyasiga olish (besh yildan oshmagan muddatga), ta'lif-tarbiya yoki tibbiy muassasalarga joylashtirish, sinov muddatini tayinlash (o'n sakkiz yoshgacha)⁶.

Angliya va Uelsda esa 1998-yil 31-iyulda qabul qilingan "Jinoyat va tartibsizliklar to'g'risida"gi qonun asosida jinoiy javobgarlik yoshi o'n deb belgilangan. O'n yoshdan o'n yetti yoshgacha bo'lgan shaxslarga nisbatan dastlabki huquqbazarliklarda politsiya tomonidan ogohlantirish beriladi. Agar jinoyat og'ir bo'lsa, sud quyidagi choralarni belgilashi mumkin: uch yilgacha sinov muddati, jamoat ishlari (40 soatdan 240 soatgacha), shartli jazo, komendantlik soatiga rioya qilish, yashash joyi bo'yicha cheklovlari, dam olish kunlari tarbiyaviy kurslarda qatnashish⁷.

Xorijiy mamlakatlar qonunchiligi tahlil qilinar ekan, O'zbekiston qonunchiligidan farqli bir qator jihatlar aniqlanadi. Masalan, Qirg'iziston Respublikasida voyaga yetmaganlarga nisbatan ogohlantirish, ota-onaga topshirish kabi choralardan tashqari, majburiy chora amal qilish muddati aniq (bir oydan uch oygacha) belgilangan.

Belgiya qonunchiligidan ota-onalar yoki ixtisoslashtirilgan organlar zimmasiga nazarat yuklatiladi, Germaniyada esa voyaga yetmaganlarning yashash joyi, aloqada bo'lishi mumkin bo'lgan shaxslar va joylar cheklanadi. Psixologik yordam, homiylik oilasiga joylashtirish, ixtisoslashgan markazlar, kasb-hunar o'rgatish muassasalariga joylashtirish kabi chora-tadbirlar mavjudligi kuzatiladi.

Bundan tashqari, Rossiya jinoiy qonunchiligidan zamonaviy jinoiy qonunchilik voyaga yetmagan shaxsga jazo tayinlashdan oldin tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning majburlash choralarini qo'llash uchun asoslar mavjudligini hisobga olish keraklididan kelib chiqadi hamda Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 14-bobi voyaga yetmaganlarning jinoiy javobgarligi va jazosining xususiyatlariga bag'ishangan. Ushbu bobning 90-moddasidan boshlab voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilishda tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning majburlov choralariga bag'ishlangan.

Rossiya jinoiy qonunchiligiga ko'ra, voyaga yetmaganga nisbatan quyidagi ta'lif-tarbiyaviy majburlov choralar qo'llanilishi mumkin, xususan, ogohlantirish; ota-onalar yoki ularning o'rmini bosuvchi shaxslar yoxud ixtisoslashtirilgan davlat organi nazorati ostida o'tkazish; yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini yuklash; voyaga yetmaganning bo'sh vaqtini cheklash va xulq-atvoriga alohida talablarni belgilash (Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 90-

⁵ Code pénal français. Article 122-8. URL: <https://www.legifrance.gouv.fr>

⁶ Ordonnance du 2 février 1945 relative à l'enfance délinquante (Fransiya).

⁷ Crime and Disorder Act 1998 (England and Wales). URL: <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1998/ts>

moddasi) hamda yopiq turdag'i maxsus ta'lim muassasasiga joylashtirish (Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 90-moddasi). Mazkur majburlov choralarining mazmuni Jinoyat kodeksining 91- va 92-moddalarida yoritilgan.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan majburlov choralarini qo'llash sud tomonidan amalga oshirilib, kichik yoki o'rtacha og'irlikdagi jinoyat sodir etgan voyaga yetmagan shaxs, agar uni axloq tuzatishga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning majburlov choralarini qo'llash orqali erishish mumkinligi e'tirof etilgan bo'lsa, jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi mumkin⁸.

Voyaga yetmagan shaxs tomonidan tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning majburlov chorasi mutnazam ravishda bajarilmagan taqdirda, ushbu chora ixtisoslashtirilgan davlat organining taqdimnomasiga binoan bekor qilinadi va voyaga yetmagan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun materiallar yuboriladi (Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 90-moddasi 4-qismi). Bundan tashqari, jazoni o'tashdan shartli ravishda ozod qilish instituti ham voyaga yetmaganlarning manfaatlarini himoya qiladi. Voyaga yetmaganda jinoyat sodir etgan, ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan shaxsga nisbatan jazoni o'tashdan shartli ravishda muddatidan oldin ozod qilish amalda o'taganidan keyin qo'llanilishi mumkin (Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 93- moddasi).

Xulosa qilib aytganda, xorijiy tajriba voyaga yetmagan jinoyatchilarga nisbatan jazolashdan ko'ra, ularni tuzatish, tarbiyalash va ijtimoiy moslashtirishga qaratilganligini ko'rsatadi. Bu yondashuvlar, yoshlarning kelgusida jinoyatchilik yo'liga qaytmasligi uchun muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, oilaviy muhitning salbiy ta'siri, nazoratning sustligi kabi omillar ushbu jinoyatlar ildizida turganligi statistik jihatdan ham isbotlangan.

Shu sababli, xalqaro huquq normalari asosida milliy qonunchilikni takomillashtirish, jazodan ozod qilish institutini yanada samarali qo'llash va huquqiy ta'sir choralarini insonparvarlik tamoyillari asosida belgilash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

⁸ <http://pravo.gov.ru/proxy/ips/?docbody&nd=102041891>